
JARAYON



Bugun So'x tumaniga Farg'ona viloyati hokimi Xayrullo Bozorov tashrif buyurdi. Viloyat hokimi tumanda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va islohotlar jarayoni bilan tanishdi. Tashrif chog'ida:

□Tashrif avvalida viloyat hokimi Sohibkor mahallasida "Tul world market" MChJ tomonidan barpo etilayotgan yangi zamonaviy bozorning qurilish jarayonini ko'zdan kechirdi;

□Javpaya massivida qishloq xo'jaligida foydalanmaydigan yerlardan samarali foydalanish maqsadida olib borilayotgan ishlar jarayoni ko'zdan kechirildi;

□Devayron mahallasidagi "Tristar Go" tikuvchilik korxonasidagi ishlar ko'zdan kechirildi;

□Viloyat hokimi ishtirokida Oftobru mahallasida barpo etilgan yangi 30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi foydalanishga topshirildi;

□"Sohil" dam olish majmuasida istiqloqlarning 31-yillik bayrami munosabati bilan 31 nafar kam ta'minlangan fuqarolar farzandlarining "Sunnat to'yi" o'tkazildi;

□Sarikanda mahallasidagi 9208-harbiy qismi askar va zobitlariga yangi uylar kalitlari topshirildi;

□Qiymati salkam 95 milliard so'm bo'lgan Qayroq suv nasos stantsiyasida olib borilayotgan ishlar ko'zdan kechirildi va viloyat hokimi tomonidan Qayroq massiviga suv tortish ishlariga start berildi;

□Bevosita Qayroq massivining bepoyon kengligida bo'lgan viloyat hokimi mavzening istiqbollari xususida o'zining taklif va tavsiyalarini berdi;

□Viloyat hokimi Demursad mahallasidagi "Mirzoqurbon" ishlab chiqarish firmasi faoliyatini ko'zdan kechirdi;

□"Kardioservis Al-Hakim" xususiy klinikasida bo'lgan viloyat hokimi mazkur tabobat maskani istiqbollari xususida tadbirkor bilan so'hbatlashdi va majmuaning ikkinchi blokini ishga tushirish uchun kredit olish masalasi hal etildi;

□Prezidentimiz Farmoni bilan "Mehnat shuhrati" ordeni olgan Subhiddin-ota Sharofiddinov xonadonida bo'lgan viloyat hokimi otaxonni tabriklab, samimiy so'hbatlashdi;

□Sharqobod mahallasida joylashgan harbiy qismning bir guruh askar va zobitlar oilalariga yangi qurilgan uy-joylar kalitlari tantanali tarzda taqdim etildi.

Bizni kuzatishda davom eting.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-08-24 19:56:59